



OLIY TA'LIM MUASSALARI O'QUV JARAYONIGA INNOVATSION TA'LIM TEKNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISHNING AMALIY YO'NALISHLARI

Ashurova Gulrux Oxunovna,
Qo'qon universiteti o'qituvchisi,
E-mail: ashurovagulrux1@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lismuassasalari o'quv jarayoniga innovatsion ta'limgan texnologiyalarini tatbiq etishning amaliy yo'nalishlari tahlili o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: modernizatsiya, globallashuv, jarayon, trening, izyuminka, interfaol strategiya, debriefing, portfolio.

Kirish.

Ta'lism sifatini ta'minlash –bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan birga o'quv jarayonining qanday tashkil etilishi va uning belgilangan sifat mezonlariga javob berishida ko'rindi.

Ushbu vazifa bir qator qonunchilik va me'yoriy hujjatlarda, xususan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish misolida aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ko'rsatma va tamoyillar ko'rinishida o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov mazkur muammoning ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy ahamiyatini: "Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'limga va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga katta zarurat sezila boshladi", deb asoslagan.

Shu bois hozirgi davrda ta'limga samadorligini oshirish, mutaxasislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarning innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliv ta'lismuassalaridagi o'quv jarayoniga innovatsion ta'limga va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish oliv ta'limga tizimini modernizatyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi.

Bunda ta'limga bosqichlarining o'zaro mazmunan bog'liqligi, uzviyligi va uzuksizligini ta'minlash; oliv ta'limga o'quv jarayonini tashkil etishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o'quv-usuliy majmular sifatini ta'minlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda professor-o'qituvchilarning kompyuter va internetdan foydalashnish bo'yicha savodxonligini doimiy oshirib borish; oliv ta'limga axborot-resurs va zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan



ta'minotini yanada rivojlantirish; mazkur yo'nalishlarda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish oliv ta'lim muassalari faoliyat yo'nalishlari tarkibini belgilaydi.

Oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash (ing. Modern-yangilangan, zamonaviy, tezkor o'sish) o'quv-tarbiya jarayoniga nisbatan ham innovatsion yondashuvni talab etadi.

Hozirgi globallashuv jarayonlarida ta'limga innovatsion yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati quyidagilar bilan o'lchanadi:

1. Fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanis huzluksiz ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'lim muassalaridagi o'quv jarayonini ilg'or xorijiy tajribalarni o'ganish, ta'limdagi innovatsion yondoshuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish.

2. Talaba-yoshlardagi ma'lumotlilik darajasi, intellektual salohiyat, ijtimoiy faollik, ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning samarali tashkiliy shakllari, texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish.

3. Pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish zarurati.

Darhaqiqat, ta'limga innovatsion (inglizcha innovation-yangilik kiritish) yondashuv g'oyasi ta'lim mazmuni va natijalarining shaxsga yo'nalganligi, ta'lim mazmuni va natijalarining shaxsga yo'nalganligi, ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalarini fan va texnikaning so'nggi yutuqlari, ilg'or tajribalar, zamonaviy metodikalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilganligi bilan an'anaviy yondashuvdan farq qiladi.

V.A.Slastenin pedagogik jarayonga innovatsion yondashishni o'qituvchi va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, o'qitish va tarbiyalashning maqsadi, mazmuni va shakliga yangilik kiritish bilan izohlaydi.

Darhaqiqat, ta'lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta'minotning mavjudligini ko'zda tutadi. Shu sababli oliy ta'lim muassalari o'quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda pedagogik-psixologik fanlarning yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo'nalishlardan sanaladi.

Bu esa o'z navbatida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida ma'ruza (muammoli ma'ruza, maruza-seminar, virtual-texnologik ma'ruza, vizual ma'ruza, binar ma'ruza, kirish ma'rzasasi, ma'ruza-konferensiya, axborotli



ma'ruza, ma'ruza babs-munozara, sharhlovchi ma'ruza, on-Line ma'ruza) trening, video trening, vebinarlar, internet konferensiyalardan foydalanish zaruratini asoslaydi.

Bo'lajak mutaxasisning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida treninglar katta imkoniyatlarga ega.

Trening - (ingliz tilidan training-train-o'qitmoq, tarbiyalamoq) interfaol mashg'ulotlarni amalga oshirishning asosiy shakli bo'lib, u o'rganilishi lozim bo'lgan nazariy g'oya va fikrlarni amaliy ish, mashqlar davomida o'zlashtirish, muloqot almashish imkonini beruvchi tashkiliy tadbir hisoblanadi.Trening bu nafaqat ta'lim oluvchilarda shaxslararo o'zaro hamkorlikning samarali ko'nikmasini shakllantirishga, balki mutaxasis kasbiy kompetentligining umumiy darajasini oshirishga yo'naltiriladi.Trening mobaynida talabalar nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan birga, ularda bilish, emotsiyonal va xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlanib boradi.Har qanday trening quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1.Izyuminka-(joziba-qatnashchilar bilan ishlashnig o'ziga xos ajoyib tomoni) qatnashchilarning treningga qiziqishini uyg'otish uchun qisqa babs boshlash, savollar berish, qatnashchilar fikrini chalg'ituvchi (provaksion)ta'kidlarni ilgari surish yoki qandaydir faoliyatning hayotiy tajribalarini bog'lashga harakat qilish. Trening ahamiyati nimadan iborat ekanligi sabablarini tushuntirish.

2.Qatnashchilar uchun natijalarni ta'kidlash.Qatnashchilarga treningdan qanday maqsad kutilayotganini auditoriyaga tushuntiring.Qatnashchilar trening natijasida: "Bu treningdan keyin nimalarni bilishim va nimalarni qilishim lozim?" degan savolga javob berishlari kerak.

3.Trenerning hissasi.Trening uchun zarur dastlabki ma'lumotlar, zarur bilimlar (matn, ma'ruza, hujjatlar, o'qish)va biror faoliyat turini o'tkazish uchun fan mazmunini namoyish qilish.

4.Interfaol strategiya-treningning yuragidir.Interfaol uslubiyotda foydalanadigan ish tartibini qisqacha bayon qilish.Interfaol uslub-bu jamoaviy muhokamani tashkil etish, fikrlarni erkin aytish, muhokama, tahlil va faoliyatni baholashdir.Umuman treningdagi faoliyatning ushbu turida qatnashishning barcha qadamlarini chizib chiqish.Guruhsda ishslash uchun aniq va qisqa tushuntirishlar olib borish.Qatnashchilar tushunganlik darajasini muntazam nazorat qilib borish.

Treningni yakunlashga vaqt yetishi uchun, uning har bir qismini diqqat bilan tashkil qilish, bu yerda treningni o'tkazish uchun mo'ljallangan savollar muhim ahamiyatga egaligini e'tibordan chetda qoldirmaslik, trener mashqlarni qatnashchilar tomonidan bajarish jarayonida topshiriqlarni to'g'ri bajarishini kuzatib borishi lozim.



5. Debriefing(xulosa) baholash. Qatnashchilar o‘zlari yod olgan va o‘zlashtirgan bilim (yo‘nalish)lari bo‘yicha xulosa qiladilar, o‘zlashtirgan ma’lumotlar va malakalarni boshqa xolatlarda, o‘quvchilar bilan ishslashda qo‘llashni muhokama qiladilar.

Bu treningni baholash qismidan iborat bo‘lib, bunda “Qatnashchilar nimani o‘rgandilar?” savoliga javob olinadi. Trening davomida qatnashchilar o‘rgangan yoki ko‘rsatgan bilimlari natijalar bilan mos kelishi tekshiriladi.

Treninglar an’anaviy o‘quv mashg‘ulotlaridan quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

-bunda ta’lim oluvchilar yoki ishtirokchilar guruhi yoshi va bilim jihatdan bir xil bo‘lmaydi;

-trening jarayonining asosiy maqsadi ishtirokchilarni o‘zaro muloqotga chorlash va faollashtirishdan iborat etib begilanadi;

-o‘qitish va tarbiyalashning shakl, metod va vositalari trening maqsadidan kelib chiqib tanlanadi va individuallashtiriladi.

Pedagogik amaliyotda samarali innovatsion o‘qitish metodlari sifatida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari: muammoli, interfaol metodlar, amaliy o‘yinlar, o‘quv loyihalari va boshqalardan foydalanish talabalar tomonidan kasbiy bilimlarni faol o‘zlashtirish, ulardagi bilish faolligi, kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Ilg‘or tajribalar namu nasi sifatida ta’lim amaliyotiga kiritilgan Keys-stadi ham ana shunday metodlardan sanaladi. Keys-stadi- bu vaziyatlar orqali o‘qitish yoki aniq vaziyatlar tahlili, amaliyotdan nazariyaga kabi tamoyillarga asoslanadi. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keysda harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim(Who), Qachon(When), Qayerda(Where), Nima uchun(Why), Qanday/ qanaqa (How), Nima-natija(What).

O‘qitishning samarali metodlaridan yana biri bu SWOT-tahlillardir.

SWOT-tahlil-mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlas, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda har qanday g‘oya, tajriba, vaziyat yoki jarayon 4 yo‘nalishda ko‘rib chiqiladi: strength-kuchli tomonlari, weakness-zaif, kuchsiz tomonlari, opportunitu-imkoniyatlari, threat-to‘siqlar kabi.



Oliy ta'lim muassalarida usuliy faoliyatni rivojlantirish, talabalarning o'z-o'zini kasbiy rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojini qaror toptirishda-portfolioolar ham ijobjiy ta'sir kuchiga ega.

Portfolio-(ital.portfolio-portfel, ing.hujjatlar uchun papka)ta'limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan hisoblanadi.Portfolio bo'lajak mutaxasisning yoki o'qituvchining saralangan o'quv-metodik ishlari, kasbiy-shaxsiy yutuqlari yig'indisi sifatida aks etadi.

Yuqoridaagi fikrlarni umumlashtirgan holda ta'kidlash mumkinki, oliy ta'lim muassalari o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish-bugungi kunda soha oldida turgan muhim vazifalardan sanalib, unda o'quv jarayonining me'yoriy, usuliy, moddiy-texnik ta'minoti, kadrlar salohiyati hamda innovatsiyalarni o'zlashtirish ko'nikmalari va, albatta, talabalarning kasbiy bilimlarni egallashga bo'lgan bilish faolligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.K.Shamshetova, R.N.Meliboyeva, X.E.Usmanova, I.O. Xaydarov -“Umumiyl psixologiya”. T-2018
2. Z.Nishanova, D.Qarshiyeva, N.Ataboyeva, Z.Qurbanova- “Psixodiagnostikava eksperimental psixologiya” T-2013
3. A.V. Petrovskiy- “Umumiyl psixologiya”
4. Qaxxorova, M. (2024). GORNER SXEMASINING MATEMATIK ANALIZGA TATBIQLI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(1), 3-9.
5. Ашуроева Г.О. Совершенствование современного дошкольного образования // Актуальные научные исследования в современном мире. 2018. №1 1-7 (43). С. 27- 30
6. Ashurova G.O. Sovershenstvovanie sovremenennogo doshko'nogo obrazovaniya // Aktualnye nauchnye issledovaniya v sovremennom mire. 2018. №1 1-7 (43). S. 27 – 30
7. O.U.Avlayev, S.N.Jo'rayeva, S.R.Mirzayeva, “Ta'lim metodlari”. Toshkent- 2017.”Navro‘z” nashriyoti.
8. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10, 121-123.
9. Otto, M., & Thornton, J. (2023). MAK TABGACHA INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 408- 411.
10. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In E-Conference Globe (pp. 25-26).



11. Qizi, I. M. I. (2021). Mohlaroyim nodira's skill in using a satellite. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 1048-1052.
12. Nigora, M. (2024). YOSH AVLODGA KITOBXONLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O 'RNI. Kokand University Research Base, 216-219.
13. Maxliyoxon, O., & Shaxnozaxon, J. (2024). DRAMA AND ARTISTIC READING IN PRIMARY GRADES: Study guide. ISBN-13, 979-8324468415.
14. Maxliyoxon. (2024). MODERN INTEGRATION OF PRIMARY EDUCATION, ART, PEDAGOGY AND INFORMATION COMMUNICATION. ISBN-13 : 979-8323781928 1, 158
15. Odilova, M. (2024). O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA PISA TESTINING ISTIQBOLLARI. Nordic_Press, 3(0003).

